

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

I Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 1-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-09-362-3

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sadikov Akramjon

AK-2 ANTIPIREN KOMPOZITSIYASINING ELEKTRON SKANERLOVCHI MIKROSKOR (ESM) VA ELEMENT TAHLILI 5-8

Yusupova Difuza, Maqsudov Nabijon

YUQORI HARORAT TA'SIRIDAN MAXSUS HIMOYA KIIYIMLARINI ISHLAB CHIQRISH UCHUN MATERIALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR..... 9-11

TARIX FANLARI

Xusanov Ximmat

SAAD ZAGLUL BOSHCHILIGIDA MISRLIKLARNING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHI..... 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Икрамов Акбар

СОСТОЯНИЕ И РАЗВИТИЕ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ 15-18

Baxridinova Shaxnozaxon

KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
TEKNOLOGIK INNOVATSIYALARNING O'RNI 19-22

FALSAFA FANLARI

Raxmatov Bekzod

O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIDA MILLIY G'OYA VA
MAFKURANING AHAMIYATI 23-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ibrogimova Dilnoza

DEVONI LUGOTIT-TURK ASARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING
LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI 31-35

Po'latova Lobar

"YANGI DAVR" INFORMATSION DASTURI – O'ZBEKISTON YOSHLARINING AXBOROT
MANBALARIDAN BIRI SIFATIDA..... 36-40

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ 41-47

YURIDIK FANLARI

Qayumberdiyeva Dildora

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEDIATSIYA INSTITUTINI TARTIBGA SOLISH BILAN
BOG'LIQ AYRIM MUAMMOLAR 48-51

PEDAGOGIKA FANLARI

Xamrakulova Kumush

QULAY TA'LIM MUHITI YARATISHDA OTA-ONALAR, MAHALLA VA
MAKTABNING IJTIMOIIY HAMKORLIGI 52-56

Nishanbayeva Nozimaxon

METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING LISTENING IN A DIGITAL EDUCATIONAL
ENVIRONMENT..... 57-61

Jololdinov Asror

KARTOGRAFIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIIY METODIK YONDASHUVLAR VA ULARNING
SAMARADORLIGI 62-67

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PISA TOPSHIRIQLARI ROLI 68-69

TIBBIYOT FANLARI

Мирзахмедова Мухаррам, Атамуратова Айпаршин

ВЛИЯНИЕ СТРОИТЕЛЬНОГО МАТЕРИАЛА ДЕТСКОГО САДА НА ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ 70-72

Abdusalomov Sanjar, Abdusalomov Sunnatulla, Botirov Kamronbek

TISH EMALINING REMINERALIZATSIYA QILISHNING YANGI TEXNOLOGIYA VA USULLARI 73-77

YUQORI HARORAT TA'SIRIDAN MAXSUS HIMOYA KIIYIMLARINI ISHLAB CHIQRISH UCHUN MATERIALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Yusupova Dilfuza Ubaydulloyevna

Farg'ona davlat texnika universiteti tayanch doktranti,

Email: yusupovadilfuza1993@gmail.com

Tel: +99893 980 04 54

ORCID: 0000-0002-0934-0007

Farg'ona, O'zbekiston

Maqsudov Nabijon Baxodirovich

PhD dotsent, Yengil sanoat muhandisligi kafedrası,

Namagan davlat texnika universiteti.

Email: maqsudovnabijon@mail.ru

Tel: +99894 307 39 47

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola metallurgiya sanoati ishchilari xavfsizligini ta'minlash va ish joyida yuz beradigan jarohatlar sonini kamaytirishga qaratilgan. Maqolada yuqori haroratli sanoat sharoitida faoliyat yurituvchi ishchilarni himoyalash maqsadida ishlab chiqiladigan maxsus kiyimlar va ular uchun qo'llaniladigan materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar yoritib berilgan. Xususan, issiqlikka chidamlilik, olovbardoshlik, mexanik mustahkamlik, reflektivlik, yengillik va gigroskopiklik kabi muhim omillar chuqur tahlil qilinadi. Metallurgiya sohasi ishchilari yuqori harorat, suyuq metall tomchilari, uchqunlar va infraqizil nurlanish kabi xavfli omillar ta'sirida ishlaydi. Shu bois, maqolada ushbu xavflarga qarshi samarali himoya ta'minlaydigan maxsus kiyimlar ishlab chiqarish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: metallurgiya, maxsus himoya kiyimi, yuqori harorat, issiqlikka chidamlilik, olovbardoshlik, mexanik mustahkamlik, reflektiv material, ishchi xavfsizligi, sanoat muhofazasi, himoya materiallari.

MATERIAL REQUIREMENTS FOR MANUFACTURING SPECIALIZED PROTECTIVE CLOTHING FOR HIGH-TEMPERATURE ENVIRONMENTS

Yusupova Dilfuza Ubaydulloyevna

doctoral student at Fergana State Technical University

Maqsudov Nabijon Baxodirovich

PhD, associate professor

Department of industrial engineering

Namagan State Technical University.

Annotation. This article is aimed at ensuring the safety of workers in the metallurgy industry and reducing the number of workplace injuries. It highlights the key requirements for materials used in the production of specialized protective clothing designed for workers operating in high-temperature industrial environments. In particular, it provides an in-depth analysis of essential factors such as heat resistance, flame resistance, mechanical strength, reflectivity, lightness, and hygroscopic properties. Workers in the metallurgical sector are exposed to hazardous conditions such as high temperatures, molten metal splashes, sparks, and infrared radiation. Therefore, the article offers recommendations for the development of protective clothing that can effectively safeguard against these risks.

Key words: metallurgy, protective clothing, high temperature, heat resistance, flame resistance, mechanical strength, reflective material, worker safety, industrial protection, protective materials.

Materiallar olov zonasida bo'lsa, material olovdan issiqlik radiatsiyasidan ham ta'sirlanadi. Materialning issiqlikka chidamli xususiyatlarining mavjudligi issiqlikka bardoshli tolalar yordamida ta'minlanishi mumkin, ammo yong'inga chidamli moddaga shimdirish mumkin. Olovga chidamlili xususiyatlarni beruvchi materialning shimdirish jarayoni issiqlikka qarshiligini oshiradi. Olovga chidamli materiallar nafaqat maxsus himoya kiyimlarini tikishda, balki avtomobillar uchun qoplamali matolarda ham qo'llanilishi mumkin.

Alyumin bilan qoplangan matolar

Bu matolar infraqizil nurlanishni qaytarish orqali tashqi issiqlikni chetlab o'tishga yordam beradi. Ko'pincha yong'in xavfi mavjud bo'lgan sanoat obyektlarida qo'llaniladi.

Maxsus kiyim matosi dunyo standart talablariga, sifat ko'rsatkichlariga, materialning normativ huquqiy hujjatlariga, hom ashho navlariga bevosita ega bo'lmog'i kerak[1]

Metallurgiya sanoatida ishlatiladigan maxsus kiyimlar quyidagi asosiy funksional talablarga javob berishi kerak:

- olovbardoshlik va termobardoshlik – 400–500° C haroratga bardosh beruvchi materiallar (aramid tolalari) asosiy talabdir.

- eritilgan metall uchqunlaridan himoya – matoning yaxlitligini saqlab qolish qobiliyati.

- mexanik mustahkamlik – teshilish, yirtilish va ishqalanishga qarshilik.

- gigienik ko'rsatkichlar – nafas oluvchanlik, namlik chiqaruvchanlik, antibakteriallik.

- ergonomika – harakat erkinligi, og'irlikning optimal taqsimlanishi, qulay dizayn.

Maxsus himoya kiyimlari (metallurgiya, quyish, payvandlash, yonuvchi muhitlarda ishlash uchun) yuqori harorat ta'sirida xavfsizlikni ta'minlash uchun qat'iy talablar asosida ishlab chiqiladi. Materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

1. Issiqlikka chidamlilik

Material 200–300° C doimiy haroratda shaklini saqlashi, 1000–1500° C gacha bo'lgan qisqa muddatli (qizigan metall zarrachalari, uchqun, eritma tomchilari) ta'sirida yonmasligi va erimasligi kerak.

Termik degradatsiya (rang o'zgarishi, erish, charchash) minimal bo'lishi lozim. [2]

2. Yonmaslik (olovbardoshlik)

Kiyim materiali yonib ketmasligi, olov manbai olib tashlanganda alanganishni davom ettirmasligi kerak.

3. Eritilgan metallga qarshilik

Po'lat, alyuminiy, mis eritmalari tomchilari bilan aloqa qilganda materialga yopishib qolmasligi kerak.

Tomchilar yuzada sirg'anib tushishi, materialda teshik yoki kuyish hosil qilmasligi talab etiladi.

4. Issiqlik o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi (termal izolyatsiya)

Kiyim ichki qatlamlari odam terisiga issiqlik o'tishini sekinlashtirishi kerak.

Namuna sinovida 10–15 soniya davomida qo'l terisi 43° C dan yuqori qizimasligi lozim.

5. Mexanik mustahkamlik

Material yuqori haroratda ham uzilishga, yirtilishga va ishqalanishga chidamli bo'lishi kerak.

Issiq metall zarrachalari bilan zarba yoki ishqalanish paytida material yirtilib ketmasligi talab etiladi.

6. Kimyoviy ta'sirlarga chidamlilik

Sulfat, fosfor, karbonat angidrid, moy va yog' mahsulotlariga chidamli bo'lishi kerak, chunki yuqori haroratli sexlarda turli moddalar bilan aloqa ehtimoli mavjud.

7. Gigiyenik va ergonomik xususiyatlar

Havo o'tkazuvchanlik (ventilyatsiya) yetarli bo'lishi kerak.

Namlikni shimish va chiqarib yuborish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Kiyim vazni yengil, kiyish uchun qulay bo'lishi zarur.

8. Ko'p qatlamli himoya tuzilishi

Asosiy qatlam: issiqlikka chidamli tolalar (bazalt, aramid, meta-aramid, karbon tolalar).

Yuzaki qatlam: alyuminiy folga bilan qoplangan yoki olovbardosh impregnatsiya qilingan material.

Ichki qatlam: paxta yoki namlikni yutuvchi gigiyenik material.

9. Xalqaro standartlarga muvofiqlik

ISO 11611 – payvandchilar uchun kiyim.

ISO 11612 – issiqlik va olovdan himoyalovchi kiyim.

GOST 12.4.250-2013 – eritilgan metall va yuqori haroratdan himoya kiyimlari.

GOST 11209-2014, EC EN 1149-3: 2004, EC EN 533:1997 standartlariga muvofiq

Xulosa: Yuqori haroratli sanoat sharoitida ishlovchi ishchilar salomatligi va xavfsizligini ta'minlash zamonaviy himoya kiyimlarini ishlab chiqishni talab etadi. Bunday maxsus kiyimlar faqat yuqori sifatli va maxsus xususiyatlarga ega materiallar asosida tayyorlangandagina o'z vazifasini to'liq bajaradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, materiallar issiqlikka chidamlilik, olovbardoshlik, mexanik mustahkamlik, yengillik, nafas oluvchanlik va reflektivlik kabi muhim omillarga javob berishi kerak. Shuningdek, himoya kiyimlari ishchilar uchun qulay bo'lishi, ularning harakatiga xalaqit bermasligi va uzoq muddatli foydalanishda ham o'z xususiyatlarini yo'qotmasligi lozim. Metallurgiya kabi xavfli sohalarda xavfsizlik darajasini oshirish va ish unumdorligini ta'minlash uchun, yuqorida keltirilgan talablarni hisobga olgan holda, ilg'or materiallar va texnologiyalar asosida himoya kiyimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Maxsus kiyim ishlab chiqarishda material yonmaydigan, yuqori haroratga, eritilgan metall tomchilariga va mexanik ta'sirlarga chidamli bo'lishi, shu bilan birga inson uchun qulay (gigiyenik) bo'lishi shart.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. S.A.Yusupov, Sh.A. Mahsudov "Ustki kiyimlarning alanga ta'siriga chidamliligi tadqiqi" Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish istiqbollari" Ilmiy-amaliy konferentsiya. 2015 y. 29-31 b.
2. Fayzullayeva, N. (2021). To'qimachilik materialshunosligi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, sentyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

ISBN-978-9910-09-362-3

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.